

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

NORQUZIYEVA MADINA SHAROF QIZI

**OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA UMURTQALILAR ZOOLOGIYASI
FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Norquziyeva Madina Sharof qizi

Oliy ta'lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	3
--	---

Норкузиева Мадина Шароф кизи

Совершенствование методики преподавания зоологии позвоночных в высших учебных заведениях.....	21
---	----

Norquziyeva Madina Sharof qizi

Improving methods of teaching vertebrate zoology in higher educational institutions	41
---	----

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ	
List of published works	45

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

NORQUZIYEVA MADINA SHAROF QIZI

**OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA UMURTQALILAR ZOOLOGIYASI
FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/ Ped 7498 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.Guldu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raxmatov Uchkun Ergashevich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Rasmiy opponentlar:

Isakulova Nilufar Janikulovna

pedagogika fanlari doktori, professor

Raximov Atanazar Karimovich

pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.91.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «24» 05 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (+99867) 225-39-25, faks: (+99867) 225-39-25; E-mail: glsuinfo.bio@mail.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (89-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (99867) 225-39-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «05» 05 kuni tarqatildi.

(2025 - yil «05» 05 dagi 7- sonli reyestr bayonnomasi)




A. Pazilov

Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash raisi,
b.f.d., professor


F.P. Gaibnazarova

Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
b.f.f.d.(PhD) dotsent


J.X. Karshibayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, b.f.d., dotsent

KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon oliy ta’lim tashkilotlarida o‘qitishning innovatsion texnologiyalari amaliyatga tadbiq etilmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiyasida belgilangan “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish¹” vazifasi o‘qitishga ilg‘or yondashuvlarni keng joriy etishni ta’minlamoqda. Oliy ta’lim muassasalarida milliy va xalqaro ta’lim muhitida soha mutaxassislari darajasini tashxislash, fanlarni integratsiyalab o‘qitish mexanizmlarini yaratish, o‘qitishni pedagogik dasturiy vositalar hamda interfaol ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida tabiiy fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish, biologiyaning nazariy asoslarini axborot texnologiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida shakllantirish, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining nazariy bilimlaridan amaliyotda muvaffaqiyatl foydalana olish malakalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Intellektual salohiyatl, kasbiy ko‘nikmalarga ega kompetentli poleontologik, zoogeografik, filogenetik yo‘nalishlarda mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish, o‘qitish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimida o‘quv jarayoniga innovatsion texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarini joriy etish, o‘qitish intensivligi va samaradorligini oshirish, jahon andozalariga moslashtirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda.

“Kimyo va biologiya fanlarini chuqr o‘qitish hududlarda yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qo‘srimcha qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, tog‘-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirish hamda pirovard natijada, xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirish” ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu o‘z navbatida kimyo va biologiya fanlarini o‘qitish mazmunini takomillashtirishga bo‘lgan yangi ehtiyojlarni keltirib chiqardi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-sod “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” farmoni², O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sod “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni³, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sod “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-

¹ YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiysi

² O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-sod Farmoni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to‘plami. - T., 2017. 6-sod.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sod “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmon

son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyaları rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjası. Respublikamizda biologiya va uni o‘qitish metodikasini pedagogik va axborot texnologiyaları vositasida takomillashtirish J.A.Azimov, J.O.Tolipova, O.Mavlonov, S.Dadayev, K.A.Saparovlar tomonidan; oliy ta’lim muassasalarida pedagogik va axborot texnologiyalarini ta’lim amaliyotiga joriy etish A.A.Abduqodirov, N.N.Azizzodjayeva, U.Sh.Begimqulov, R.X.Djurayev, Sh.S.Sharipov, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini orttirish va talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish N.A.Muslimov, O‘.Q.Tolipov, M.B.Urazova, J.E. Usarov, S.X.Sulliyeva, Q.G‘.Zokirov, U.E. Raxmatov, G.S.Ergasheva, M.A.Kuychiyevalar tadqiq etishgan.

MDH davlatlarida biologiya o‘qitish metodikasini takomillashtirish M.Bulicheva, O.G.Petrova, L.V.Pivovarova, A.I.Nikishov, Ye.V.Titov, V.V.Grichik, E.X.Demyankovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijda zoologiya fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda R.L.Bell, D.F.Slish, B.Bishop, R.L.Kotpal, Kaivola kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Pedagog olimlar jamoasi tomonidan biologiya fanini o‘qitish muammosi bilan bog‘liq keng qamrovli ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, umurtqalilar zoologiyasini o‘qitish metodikasini takomillashtirish yuzasidan maxsus tadqiqot ob’ekti sifatida alohida o‘rganilmagan.

Tatqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat pedagogika universitetida PZ-20170923121 raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2017-2020 yy.)

Tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

zoologiya fani o‘qitilayotgan oliy ta’lim muassasalarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish;

oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish modelini takomillashtirish;

bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining umurtqalilar zoologiyasi fanidan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari samaradorligini aniqlash, didaktik ta’minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob’ekti pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlari Jizzax davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Qo‘qon davlat pedagogika institutlarida olib borilgan va bu jarayonda 322 nafar talabalar ishtirok etishgan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, anketa so‘rovnomalari, amaliy mashg‘ulotlar, suhbat va test sinovlari natijalarini matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari didaktik tayyorgarlik bosqichlarining tarkibiy qismlarini ta’limiy maqsadlar mazmuniga moslashtirishga qaratilgan noan’anaviy laboratoriya metodlari va topshiriqlarini kiritish hamda nazariy va amaliy bilimlarni didaktik integratsiyalashga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish modeli nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda axborot-kommunikativ texnologiyalari imkoniyatlaridan ratsional foydalanishga ustuvorlik berish hamda biologik va metodik komponentlarini yaxlit metodik tizimni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik integratsiyasini bosqichma-bosqich ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligi ijtimoiy, ma’naviy, psixologik – pedagogik mezonlarning yaxlit integrativ xususiyatlarini vektorli shakllantirish hamda kasbiy pedagogik refleksiyaning motivasion-maqsadli, kognitiv-faoliyatli, shaxsiy-refleksiv ko‘rsatkichlarini didaktik maqsadlarga proporsional uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligi talabalar kreativ fikrlashlarini oshirish, olingan bilimlar sifat darajasini oshirishni ta’minlash hamda o‘zini-o‘zi rivojlantiruvchi mantiqiy-muammoli topshiriqlarni bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarning zoologiya fani mazmunini o‘zlashtirish va metodik tayyorgarligini oshirishga doir muammoli xarakterdagи topshiriqlar ishlab chiqilgan hamda bo‘lajak biologiya o‘qituvchilari metodik tayyorgarligining shakl, metod va vositalari takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va talabalarning umurtqalilar zoologiyasi fani bo‘yicha metodik tayyorgarligini takomillashtirishga oid multimediali elektron axborot resurslari ishlab chiqilgan.

oliy ta’lim muassasalarida umurtqalilar zoologiyasi fanini didaktik ta’minotini takomillashtirish maqsadida “Umurtqalilar zoologiyasi fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari” nomli o‘quv qo‘llanmasi nashr qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligi, matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashning mazmunini o‘zida mujassam etgan zoologiya fanini o‘qitish jarayoniga oid model boshqa fanlarni kasbga yo‘naltirilgan holda o‘rganish uchun metodik asos bo‘lishi mumkinligi bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati biologiya o‘qituvchilarini o‘z faniga bo‘lgan qiziqishlarini umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif, tavsiya va xulosalardan olyi ta’lim muassasalarida va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi;

umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘zlashtirishga doir muammoli vaziyatlar va metodik xarakterdagi vazifalar tizimini ishlab chiqish, umurtqalilar zoologiyasi faniga mo‘ljallangan dars va darsdan tashqari mustaqil ishlar uchun didaktik materiallar to‘plamini tuzish, elektron ta’lim resurslari, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, talabalarning kreativ qobiliyatlari hamda kasbiy kompetentliligin oshirishga xizmat qiluvchi dasturiy ma’lumotlardan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish pedagogik nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minalashning didaktik imkoniyatlarini baholash, o‘qitishning vizual-tadqiqiy samaradorligini kengaytirish hamda shaxslararo muloqotga kirishish faoliyatini individuallashtirish jarayonlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-2017927124 raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yil 22-iyundagi 02-07-1679/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada takomillashtirilgan o‘quv dasturlari tuzilgan hamda talabalarning umurtqalilar

zoologiyasi fanini o'qitish metodikasini shakllantirish, baholash, ma'lumotlarni tahlil etish samaradorligini oshirishga imkon yaratilgan;

oliy ta'lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni mustaqil ta'lim olishga ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy-kommunikatsion omilarini tasniflash, muammoli ta'lim olish bosqichlarini adaptiv va reproduktiv o'qitishga integratsiyalovchi algoritimli topshiriqlarni umumlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar PZ-20170923121 raqamli "Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish" nomli loyiha doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yil 22-iyundagi 02-07-1679/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada oliy ta'lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirilgan hamda oliy ta'lim tizimi o'quv-metodik ta'minoti boyitilishiga imkon yaratilgan;

oliy ta'lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirishning dasturiy ta'minoti mazmuni hamda ta'lim jarayonini tashkil etishga doir refleksiv va sinergetik yondashuvlarning pedagogik transformatsiyalashishiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yil 22-iyundagi 02-07-1679/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, oliy ta'lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitish metodikasini rivojlantirilgan hamda axborot kompetentligi darajasini baholash omillari aniqlash imkon yaratilgan;

oliy ta'lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish mezonlari kasbiy kompetentlik va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish mexanizmlarini individual va mustaqil ta'lim sub'ektlarining manfaatlariga adaptiv sinxronlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar PZ-20170923121 raqamli "Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish" nomli loyiha doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan. (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yil 22-iyundagi 02-07-1679/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada ta'limni axborotlashtirish sharoitida uzlucksiz ta'lim muassasalarida faol axborot almashish imkoniyati va interaktiv texnologiyalardan ijodiy foydalanish kompetensiyasiga ega biolog-mutaxassislarni tayyorlash samaradorligini oshirish imkon yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan: 10 ta maqola, shu jumladan, ularning 5 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda, 1 ta o'quv va 1 ta elektron qo'llanma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darjasini bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘r-satilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, nati-jalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi haqidagi ma’lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning “**Oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida, oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillash-tirishning pedagogik-psixologik asoslari hamda umurtqalilar zoologiyasi fani va unga aloqador ilmiy ishlar mamlakatimiz va MDH hamda uzoq xorij davlatlarining ilmiy tadqiqotlari doirasida, qiyosiy tahlil qilingan.

Biologiya o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishi talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni tashkil etish va amalga oshirishning mazmuni malaka talablari, o‘quv reja, namunaviy o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar hamda tavsiyanomalarda o‘z ifodasini topgan. Malaka talablari ta’limning zarur va yetarli darjasini hamda o‘quv yuklamalari hajmiga qo‘yiladigan asosiy talablarni belgilab beradi. Ta’lim oluvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni malaka talablarida belgilab ko‘rsatilgan.

Shuningdek, Malaka talablari – nazorat vositasi sifatida ta’lim muassasasining tayyorlov yo‘nalishlari sharoitlarini belgilab beruvchi mezon bo‘lib xizmat qiladi. Malaka talablarining joriy etilishi natijasida Davlat buyurtmachi sifatida ta’lim muassasalari oldiga vazifa qo‘yadi. Ta’lim muassasalari esa ana shu vazifalardan kelib chiqqan holda, talabalar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish chora-tadbirlarini bosqichma-bosqich belgilab oladi. Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda, oliy ta’lim tizimida o‘qituvchilarni tayyorlashda ta’lim mazmunini ifodalovchi malaka talablari quyidagilarni belgilab bergen(1-rasmga qarang):

Ta’limda munozarali va muloqotli o‘qitish o‘qituvchi va talaba o‘rtasida savol-javob, bahslarning yanada ko‘payishiga va mavzuning mustahkam o‘zlashtirilishiga olib keladi. Oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi

fanini o'qitishda interaktiv texnologiyalardan foydalanish yuzasidan fikr mulohazalar keltirilgan. Ta'linda interaktiv texnologiyalarning samaradorligi:

o'qitish shakllarini o'zgartirish (dialog tarzda ma'lumot almashish, o'zaro tushunish, harakat) ta'lim jarayonining asosiy mazmuni va yakuniy maqsadini kafolatlaydi;

Kasbiy pedagogik tayyorgarlik va uni amalga oshirishga xizmat qiluvchi sharoitlarga nisbatan qo'yiladigan umumiy talablar

Talabaning o'quv majburiyatlari va ularning hajmi

Kasbiy pedagogik tayyorgarlik mazmunini aniqlashda ta'lim muassasasining akademik erkinligi

Oliy kasbiy pedagogik tayyorgarlik yo'naliishlari (mutaxassisliklar) ro'yxatiga qo'yiladigan umumiy talablar

Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi hamda mazmuniga nisbatan minimum talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash tartib

Malaka talablariga amal qilinishi yuzasidan davlat nazoratini olib borish qoidalari

1-rasm. Malaka talablarining asosiy qoidalari.

Ta'lim tizimida ko'p sonli interaktiv texnologiyalar, usullar va uslublar yordamida ma'lumotlarni eslab qolish va undan kelgusidagi o'quv, pedagogik faoliyatida foydalanish, bilimlar sifatini ortirishga erishiladi. Pedagogikada o'qitishning bir necha metodlari farqlanadi(2-rasmga qarang):

-  nofaol – talaba o'quv jarayonining “ob'yekti” vazifasini bajaradi (tinglaydi va ko'radi)
-  faol – o'quvchi “sub'yekt” sifatida namoyon bo'ladi (mustaqil ta'lim, ijodiy topshiriqlar)
-  interaktiv – o'zaro bog'liq holda inter (vzaimniy), act (deystvovat). Interaktiv texnologiyalar o'qitish va o'qish, muloqot, bilish jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida faol ma'lumot almashishni ta'minlaydi

2-rasm. Pedagogikada o'qitishning metodlari.

liderlik sifatlarini, shaxsiy va jamoa mehnati natijalarini taqdim etish orqali korporativ madaniyatni shakllantiradi;

qo'yilgan vazifalarni hal etishga demokratik yondashuvni amalga oshirish, insonparvarlikni o'rganish, ta'limi mahsulotni yaratish;

materialni psixologik qulay, emotsiyal muhit sharoitida yuqori darajada o‘rganishni ta’minlaydi;

vazifalarni mustaqil hal etish instrumentariysini qo‘llash, ma’lumotlarga ishlov berish, darslarni loyihalash, kutubxona-axborot faoliyati doirasida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga erishiladi.

Interaktiv texnologiyalarni amalga oshirish jarayonida o‘quv materiallarini samarali eslab qolish qonuniyatları bilan tanishib chiqamiz(3-rasmga qarang).

Interaktiv texnologiyalar anglash, faoliyat, muloqotning birligiga asoslanganligi uchun faolitning samaradorligini ta’minlaydi. Ta’limda interaktiv texnologiyalar-ning samaradorligi:

o‘qitish shakllarini o‘zgartirish (dialog tarzda ma’lumot almashish, o‘zaro tushunish, harakat) ta’lim jarayonining asosiy mazmuni va yakuniy maqsadini kafolatlaydi.

Interaktiv texnologiyalar anglash, faoliyat, muloqotning birligiga asoslanganligi uchun faoliyatning samaradorligini ta’minlaydi;



axborot-psixologik uchlik (motivatsiya, ma’lumotlar xususiyati va hajmi, eslab qolish vaqt)



dinamik bilish va tushunish (asosiy g‘oyani tushunish va o‘z so‘zlari bilan izohlash)



Dj. Miller qonuni (Sehrli yettilik: 7 qo‘shuv yoki ayruv ikki)



7 qo‘shuv yoki ayruv ikki



G. Ebbingauzning egri unutish (1885 yil yaratilgan)



tomonlar samarasasi (G. Ebbingauz)



B. V. Zeygarnik natijasi

3-rasm. Interaktiv texnologiyalarni amalga oshirish jarayonida o‘quv materiallarini samarali eslab qolish qonuniyatları.

liderlik sifatlarini, shaxsiy va jamoa mehnati natijalarini taqdim etish orqali korporativ madaniyatni shakllantiradi;

qo‘ylgan vazifalarni hal etishga demokratik yondashuvni amalga oshirish, insonparvarlikni o‘rganish, ta’limiy mahsulotni yaratish;

materialni psixologik qulay, emotsiyal muhit sharoitida yuqori darajada o‘rganishni ta’minlaydi;

talabaning anglab o‘rganish uchun asosiy kasbiy sifatlari – motivatsiya va refleksiyasiga ta’sir ko‘rsatadi;

o‘qituvchi refleksiyaga erishish natijasida bilimlarni korreksiyalash (to‘g‘rilash) imkoniyati vujudga keladi;

vazifalarni mustaqil hal etish instrumentariysini qo'llash, ma'lumotlarga ishlov berish, darslarni loyihalash, kutubxona-axborot faoliyati doirasida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga erishiladi.

Interaktiv texnologiyalardan foydalanishda qulay psixologik muhitni shakllantirish materialni samarali o'zlashtirish, korporativ hamkorlikka erishishni ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning “**Oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning amaliy texnologik tizimi**” deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak biologiya o'qituvchisining iqtidorli talabalar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish hamda bo'lajak o'qituvchini metodik tayyorlash ishlarini shakllantirish muammosining nazariy asoslaninshi imkonini berdi. Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligi muammosini kompleks hal etish vazifasiga muvofiq tadqiqotning metodologik asoslarini aniqlash zaruratini ko'rsatadi.


Oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun ta’lim shakillarining barcha omillarini hisobga olish, biologiyani o‘rganishga asoslangan materiallaridan foydalangan holda oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan(4-rasmga qarang).

Oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun ta’lim shakillarining barcha omillarini hisobga olish, biologiyani o‘rganishga asoslangan materiallaridan foydalangan holda oliy ta’lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan.

Ushbu model maqsadli, tashkiliy- metodologik, mazmuni, didaktik jarayon, baholash diagnostik komponentlarga asoslangan bo‘lib, maqsadi kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdan iboratdir.


Ma'lumki, zoologiyani o‘rganish jarayonida talabalarning metodik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish bevosita zoologiyaga oid materialarni o'zlashtirish bilan birgalikda olib boriladi. Shu sababli biologik va metodik komponentning yaxlit metodik tizimli integratsiyasining muayyan mexanizmini ishlab chiqish zarur.

Zoologik bilimlar asosida metodik tayyorgarlikni umumlashtirishga xizmat qiluvchi yetakchi metodologik yondashuv sifatida zoologiya fani modelini qurishning yaxlit yondashuvi xizmat qiladi. Bu umumiyl falsafiy yondashuv bo‘lib, uni amaliyatda qo'llash turli metodologik darajalarda aniqlashtirishni talab etadi . Zoologiya kursi mazmunan kompleks xarakterga ega bo‘lib, unda morfologik, fiziologik, ekologik, sistematik, paleontologik, zoogeografik, filogenetik tushunchalar o‘rin olgan. Zoologiyada o‘rganiladigan tushunchalar, «hujayra - tiriklikning tuzilish birligi», «organizm-bir butun», «organlar tuzilishi va funksiyasining birligi», «moddalar almashinuv», «organik dunyo evolutsiyasi» kabi umumbiologik tushunchalarni sistemali ravishda rivojlantirib borishga imkon beradi. Zoologiya kursi odamning amaliy faoliyati bilan chambarchas bog‘langan. Umurtqalilar zoologiyasi fanini o‘qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyadan foydalaniib, mavzular bo‘yicha talabalarga topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi.



4-rasm. Oliy ta'lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli

1-topshiriq. Quyidagi berilgan jarayonlardagi xatoliklarni aniqlang va topshiriqnini mohiyatini izohlab bering.




Baliqlarning qon aylanish sistemasiga oid bilimlarni mustahkamlash uchun quyidagi topshiriqnini berish tavsiya etiladi.

2-topshiriq. Quyida berilgan qaysi fikr to'g'ri berilganligini aniqlang. "Ha" yoki "Yo'q" so'zlarini tegishli tartibda joylashtiring.

	Tirik organizmlardagi jarayonlar	Ha	Yo'q
.	Baliqlarning yuragida faqat venoz qon oqadi		
.	Baliqlarning yuragi uch kamerali		
.	Baliqlar sinfidan boshlab ikkita qon auylanish doirasi rivojlangan		
.	Baliqlarning qon aylanish doirasi yopiq		
.	Baliqlarning orqa aortasida kislorodga to'yingan qon bo'ladi		
.	Baliqlarning qorin arteriyalarida CO ₂ ga to'yingan qon harakatlanadi		
.	Baliqlarning yuragi ikki kamerali		
.	Baliqlarning qon aylanish doirasi ochiq		

3-topshiriq. Quyidagi qon aylanish sistemalari qaysi umurtqali hayvonlarga tegishli ekanligini aniqlang va izohlab bering




Talabalarni kreativ fikrlashlarini oshirish va umurtqalilar zoologiyasidan olgan bilimlarini sifat darajasini oshirishni ta'minlash maqsadida yuqoridagi mantiqiy ketma-ketlikdagi iyarxiyali topshiriqlardan foydalanildi.

Umurtqalilar zoologiyasini o'qitishda o'qituvchi talabalarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini yanada rivojlantirish uchun:

avvalo talabalarning darsda mustaqil ishlashlari uchun o'quv topshiriqlarini tuzishi; biologik ob'ektlar, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni o'rganish maqsadida tajriba va kuzatish o'tkazish yuzasidan ko'rsatmalar tayyorlashi; talabalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil ta'limi uchun qo'shimcha adabiyotlar va multimedialarni tanlashi lozim.

Talabalarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun, ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasini qo'llash zarur. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining asosiy g'oyasi talabalarni har tomonlama rivojlantirish sanaladi. Mazkur texnologiyadan asosiy xususiyatlari: talabalarni o'z bilish faoliyatini subektiga aylantirib, fikr yuritish mexanizmini shakllantiradi, rivojlantiradi; talabalarning bilish faoliyati emperik va nazariy bilish yaxlitligida tashkil etilib, o'qitish jarayonida bilimlarni deduktiv usulda o'rganish ustuvor bo'ladi; o'qitish jarayonining asosini talabalarning o'quv topshiriqlarini bajarish orqali vujudga keltiriladigan mustaqil faoliyat tashkil etadi; talabalarning aqliy rivojlanishiga zamin tayyorlab, bu jarayonda tanqidiy va ijodiy fikr yuritishni yanada shakllantirish ustuvor yo'nalish ekanligi ilmiy metodik jihatidan asoslandi.

Umurtqalilar zoologiyasini o'qitish jarayonida didaktik o'yin texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, loyihalash texnologiyalari va an'anaviy texnologiyalar foydalanish maqsadga muvofiq. Lekin bugungi kunda talabalarning barcha fanlar kabi umurtqasizlar zoologiyasi fanini o'qitish jarayonida turli keyslar orqali muammoli vaziyatlarni shakllantirish orqali yondoshuv talabalarning fan mazmunini puxta egallashlarida yetakchi o'rinni egallashlari aniqlandi. Keyslar bir qancha bir – biri bilan bog'liq bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi(5-rasmga qarang).




5-rasm. Keys metodi bosqichlari.

Namuna sifatida quyidagi keys topshirig'ini talabalarga taqdim etiladi.

Keys topshirig‘i.

Quyida keltirilgan rasmni izohlang. (6-rasm)
Nima sababdan umurtqali hayvonlarda gelmintoz keng tarqalgan?
Gelmintlardan saqlanish choralarini o‘rganing.
Gijjalarning zararidan himoyalanish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqing.



6-rasm. Gelmentoz bilan kasallangan sute Mizuvchining ichki tuzilishi.

Muammoli savol va “Keys” topshiriqlarini tayyorlash.

1-Muammoli savol. Amerikaning Texas shtati yaqinida olimlar 23 ta brontazavrning qumdag‘i oyoq izlarini topganlar, ular toshga aylanib shu kunga qadar o‘z shaklini o‘zgartirmagan. Tekshirishlar shuni ko‘rsatdiki, bu izlar bir vaqtda paydo bo‘lgan. Shuningdek, yirik izlar chetda, mayda izlar o‘rtada joylashgan. Mazkur dalillarga asoslanib olimlar brontazavrлarning hayoti haqida qanday xulosa chiqarishlari mumkin. Fikringizni asoslang.

Javob: brontozavrлarning va boshqa yirik o‘simlikxo‘r dinozavrлar poda bo‘lib yashagan va ko‘chib yurgan. Bunda baquvvat va yirik dinozavrлar podaning chetida yurib yosh dinozavrлarni o‘rtaga olib, ularni himoya qilganlar. Bundan ko‘rinib turibdiki, yirik dinozavrлarda nasl qoldirishga qayg‘urish vujudga kela boshlagan.

2-Muammoli savol. Fermer jamoa xo‘jaligidan dehqonchilik qilish uchun yer maydoni oldi. Lekin dalani o‘g‘itlash uchun organik va mineral o‘g‘itlarni topish imkonи bo‘lmadi. Siz tuproqning meliorativ holatini yaxshilash va unumdarligini oshirish uchun qanday usulni tavsiya etasiz. Javobingizni asoslang.

Javob: burchoqdoshlar oilasiga mansub o‘simliklarni ekish tavsiya etiladi.

3-Muammoli savol. 1951 yili angliyalik Ser Xyu Biver Irlandiyada ov qilib yurgan paytda “Oltin loyxo‘rak” deb ataluvchi tezuchar qushga o‘q tekkiza olmaydi. U o‘z muvaffaqiyatsizligini oqlashga urinsa ham, baribir manbalardan bu qushning tezligi haqida biror bir ma’lumot ololmaydi. Shunda uning miyasiga antiqa fikr keladi. O‘scha fikrini amalga oshirishni Angliyadagi bir pivo tayyorlovchi kompaniyaga topshiradi. Va 1955 yili dunyoga mashhur manba yaratiladi. O‘scha manbaning nomi nima?

Javob: Ser Xyu Biver o'sha g'oyani amalgam oshirishni pivo tayyorlovchi firmaga, ya'ni Artur Ginnes va uning o'g'li kompaniyasiga topshiradi. Natijada dunyoga mashhur Ginnes rekordlar kitobi dunyoga keladi.


Dissertatsiyaning “**Pedagogik tajriba – sinovni tashkil etish va uni o'tkazish**” deb nomlangan uchinchi bobida “Umurtqalilar zoologiyasi” fanidan nazariy, laboratoriya mashg'ulotlari, namoyishli tajribalarni bajarish jarayonida animatsion dastur va virtual shakllarda integratsiyalashgan holda o'qitish ishlari olib borilib unda qo'yidagi natijalarga erishildi

“Umurtqalilar zoologiyasi” fanidan nazariy, laboratoriya mashg'ulotlari, namoyishli tajribalarni xar biri bo'yicha alohida natijalar olindi va ularning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari umumiy ko'rsatkich sifatida aniqlани. Tajriba sinov ishlarida ishtirok etgan obyektlar soni va guruxlardagi bo'linishlar ko'yidagi jadvalda keltirildi(1-jadval).

1-jadval


OTM	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami
TDPU	52	55	107
JizDPU	53	51	104
Qo'qonDPI	54	57	111
Jami	159	163	322

“Umurtqalilar zoologiyasi” fanidan nazariy bilimlar, laboratoriya ishlari, namoyishli tajribalar bo'uicha dastlabki olingan natijalarda tanlab olingan guruhlarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari deyarli bir biriga yaqinligi kuzatildi(7-rasmga qarang).



7-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki nazorat ishidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Ushbu olingan natijalarga ko'ra umuiy mashg'ulotlar bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichilari takqqoslanib qo'yidagi natijalar olindi(8-rasmga qarang).



8-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari “Umurtqalilar zoologiyasi” fanidan.

Nazariy bilimlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori darajadagi o'zlashtirishlar tajriba guruhida 17,6% ni nazorat guruhlarida esa 9,2% ni, o'rta darajadagi o'zlashtirishlar tajriba guruhida 62,3% ni nazorat guruhlarida esa 30,1% ni, past darajadagi o'zlashtirishlar tajriba guruhida 20,1% ni nazorat guruhlarida esa 60,7% ni tashkil etib ular bir firdan farq qilishi;

laboratoriya ishlari bo'yicha nazariy bilimlar bo'yicha uzlashtirish ko'rsatkichlari yuqori darajadagi o'zlashtirishlar tajriba guruhida 18,2% ni nazorat guurhlarida esa 9,2% ni, o'rta darajadagi o'zlashtirishlar tajriba guruhida 61,0% ni nazorat guruhlarida esa 29,4% ni, past darajadagi o'zlashtirishlar tajriba guruhida 20,8% ni nazorat guruhlarida esa 61,3% ni tashkil etib ular bir firdan farq qilishi;

namoyishli tajribalar bo'yicha nazariy bilimlar bo'yicha uzlashtirish ko'rsatkichlari yuqori darajadagi o'zlashtirishlar tajriba guruhida 18,9% ni nazorat guurhlarida esa 9,8% ni, o'rta darajadagi o'zlashtirishlar tajriba guruhida 63,5% ni nazorat guruhlarida esa 30,1% ni, past darajadagi o'zlashtirishlar tajriba guruhida 17,6% ni nazorat guruhlarida esa 60,1% ni tashkil etib ular bir firdan farq qilishiga olib kelindi.

Bu ko'rsatkichlarni umuiy xolada ifodalasak yuqori darajadagi o'zlashtirishlar tajriba guruhida 18,2% ni nazorat guurhlarida esa 9,4% ni, o'rta darajadagi o'zlashtirishlar tajriba guruhida 62,3% ni nazorat guruhlarida esa 29,9% ni, past darajadagi o'zlashtirishlar tajriba guruhida 19,5% ni nazorat guruhlarida esa 60,7% ni tashkil etadi. Demak olingan natijalarga ko'ra tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirish ko'rsatkichilarda farq mavjud bo'lib tatqiqot ishi samarli o'tkazilgan deyish mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

“Oliy ta'lif tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish” mavzusida olib borilgan ilmiy-metodik tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. Umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitishda fanga oid mavzularning innovatsion pedagogik muhit asosida tizimlashtirilishi o'qitishning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi hamda mazkur o'quv fani mavzularini o'qitish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

2. Raqamlı axborot muhitı sharoitida va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitish metodikasining elementlari (fanni o'qitishning mazmuni, usul, vosita, shakl va pedagogik shart-sharoitlari) aniqlashtirildi.

3. Oliy ta'lif tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanidan laboratoriya ishlari, namoyishli tajribalar, mustaqil ta'lifni tabiiy va virtual shakllarda auditoriya sharoitida tashkil etish va o'tkazish, fanni o'qitishda innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash asosida talabalarning motivatsion, kreativ, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish mumkinligi tadqiqot jarayonida o'z tasdig'ini topgan. Jumladan: to'garak og'izlilar sinfi va baliqlar sinfi mavzularini "golden mind", "Aktivator", "Idaqiqa", "Soat millari", "A4 format", "Dalil (fakt)" kabi noan'anaviy interaktiv metodlar yordamida o'qitish samaradorligini oshirishga erishildi.

4. O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijasiga ko'ra innovatsion texnologiya muhitida umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish asosida talabalarda umurtqalilar zoologiyasi fanidan erishilgan samaradorlik matematik statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Mazkur fanni o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishi yakuni uning samaradorligini tasdiqlagan.

Oliy ta'lif muassasalari talabalariga umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitishning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

1. "Umurtqalilar zoologiyasi" fanidan uslubiy ta'minotni takomillashtirish maqsadida uning mazmuniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini vositalarini keng joriy etish va ulardan mashg'ulotlarda unumli foydalanish;

2. "Umurtqalilar zoologiyasi" fanini o'qitishda ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lif jarayoniga joriy etish bo'yicha ilmiy-uslubiy qo'llanmalar (ham o'qituvchi, ham tahsil oluvchi uchun) yaratish ko'lamini kengaytirish;

3. Pedagogik oliy ta'lif muassasalari professor-o'qituvchi va talabalarining "Umurtqalilar zoologiyasi" fani bo'yicha uslubiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan multimediali elektron axborot resurslarini yaratish va ulardan "Umurtqalilar zoologiyasi" fani mas mashg'ulotlarida samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО
СОВЕТА PhD.03/30.12.2019.В.91.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ГУЛИСТАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

НОРКУЗИЕВА МАДИНА ШАРОФ КИЗИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ЗООЛОГИИ
ПОЗВОНОЧНЫХ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (биология)

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Гулистан - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.2.PhD/Ped7498.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме) размещен на веб-странице Научного Совета (www.uzicps.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель

Рахматов Учкун Эргашевич

доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

Официальные оппоненты:

Исакулова Нилуфар Джаникуловна

доктор педагогических наук, профессор

Рахимов Атаназар Каримович

доктор педагогических наук(DSc), профессор

Ведущая организация:

Бухарский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится на заседании разового учёного совета на базе Ученого совета Ph.D.03/30.12.2019.B.91.01 Гулистанском государственном университете «24» 05 2025 года 14:00 (адрес: 120100, Сырдарьинская область, город Гулистан, 4 мкр Тел.: (+99867) 225-39-25, факс: (+99867) 225-39-25 E-mail: glsuinfo.bio@mail.uz

С диссертацией можно ознакомиться в центре информационных ресурсов Гулистанского государственного университета (зарегистрирован под номером 89). Адрес: 120100, Сырдарьинская область, город Гулистан, 4-мкр. Телефон: (99867) 225-39-25.

Автореферат диссертации разослан «05» 05 2025 года.
(Реестр протокола рассылки № 7 от 05 05 2025 года)

А. Пазиев

Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней д.б.н., профессор

Ф.П. Гаинбазарова

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней д.ф.н (PhD), доцент

Ж.Х.Каршибаев

Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.б.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В высших учебных заведениях мира внедряются инновационные технологии обучения. Задача создания возможностей для получения качественного образования на протяжении всей жизни, определенная в международной концепции образования до 2030 года, принятой ЮНЕСКО, обеспечивает широкое внедрение передовых подходов к обучению. В высших учебных заведениях ведется системная работа по диагностике уровня специалистов в национальной и международной образовательной среде, созданию механизмов интегративного преподавания дисциплин, а также организации обучения на основе педагогических программных средств и интерактивных образовательных технологий.

В международных образовательных и научно-исследовательских учреждениях проводятся исследования, направленные на повышение эффективности преподавания естественных наук, формирование теоретических основ биологии с использованием информационных и инновационных педагогических технологий, а также на развитие у будущих учителей биологии навыков успешного применения теоретических знаний на практике. Особое внимание уделяется научным исследованиям, направленным на расширение возможностей подготовки специалистов с высоким интеллектуальным потенциалом и профессиональными навыками в палеонтологических, зоогеографических и филогенетических направлениях, а также на повышение эффективности обучения.

В последние годы в нашей республике в системе образования создаются нормативные основы для внедрения в учебный процесс инновационных технологий и информационно-коммуникационных средств, повышения интенсивности и эффективности обучения, а также приведения его в соответствие с мировыми стандартами. Приоритетной задачей определено "углубленное преподавание химии и биологии для создания новых производственных предприятий в регионах, ускоренного развития отраслей с высокой добавленной стоимостью — фармацевтики, нефтяной, газовой, химической, горнодобывающей и пищевой промышленности, а также для повышения уровня жизни и доходов нашего народа". Это, в свою очередь, породило новые потребности в совершенствовании содержания преподавания химии и биологии.

Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № РF-4947 «О стратегии действий по further развитию Республики Узбекистан», Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № РF-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановление Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года № РQ-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в проводимых в стране широкомасштабных реформах», Постановление Президента

Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № РQ-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», и других нормативных правовых документов, связанных с данной деятельностью, в определенной степени служит данная диссертационная работа.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и техники республики «Социально-правовое, экономическое, культурное, духовно-образовательное развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики».

